



**FITONIMLARNING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHIGA DOIR**

*Artikova Dilnoza Abdushukurovna*

*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti  
tayanch doktoranti  
(91)5652324*

**Annotatsiya.** O‘zbek tilidagi “fitonim” arxisemali birliklarni aniqlash, ularning ichki tuzilish elementlarining sinonimik, antonimik va boshqa semantik munosabatlarini o‘rganish, shu tariqa har bir birlikning lug‘at sistemasida tutgan o‘rmini belgilash hozirgi tilshunoslikning eng muhim vazifasi ekanligi shubhasiz. Shu ma’noda o‘zbek tili leksikasidagi ahamiyatli, faol semantik makromaydonni tashkil etuvchi til birliklari – “fitonim” arxisemali birliklarni mukammal o‘rganish, ya’ni ularning semantik-mavzuiy guruhlarini aniqlab, ularning o‘zbek izohli lug‘atda berilishi masalasini tadqiq qilish muammosi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Kalit so‘zlar:** fitonim, o‘simlik nomlari, Izohli lug‘at, tilshunoslik, termin.

**К ИЗУЧЕНИЮ ФИТОНИМОВ В ЛИНГВИСТИКЕ**

**Аннотация:** Несомненно, важнейшей задачей современного языкоznания является выявление единиц с архетипом «фитоним» в узбекском языке, изучение синонимических, антонимических и других семантических связей элементов их внутренней структуры, определение тем самым места каждой единицы в словарной системе. В этом смысле проблема совершенствования изучения языковых единиц, составляющих значимое, активное семантическое макрополе в лексике узбекского языка - «фитонимических» единиц архисемы, т.е. выявления их семантико-тематических групп и исследования вопроса их представления в толковом словаре узбекского языка, определяет актуальность темы.

**Ключевые слова:** фитоним, названия растений, Толковый словарь, языкоznание, термин.

**ON THE STUDY OF PHYTONYMICS IN LINGUISTICS**

**Annotation:** It is undoubtedly the most important task of modern linguistics to identify the archaic units of the “phytonim” in the Uzbek language, to study the synonymous, antonymic and other semantic relations of their internal structural elements, and thus to determine the place of each unit in the lexical system. In this sense, the most important task of modern linguistics is to thoroughly study the archaic units of the “phytonim” in the lexicon of the Uzbek language,

which constitute a significant, active semantic macrofield, that is, to identify their semantic-thematic groups and study the issue of their inclusion in the Uzbek explanatory dictionary.

**Keywords:** phytonym, plant names, Explanatory dictionary, linguistics, term.

**KIRISH.** Muayyan semantik maydonga oid so‘zlarning semantik sistemasini o‘rganish natijasida ularning valentligi aniqlanadi. So‘z valentligiga qarab, gap qolipi belgilanadi. Qolaversa, semantik maydonga kiruvchi so‘zlarning semantik sistemasini o‘rganish so‘zlar o‘rtasidagi omonimik, sinonimik, giponimik, partonimik, gradual, funktsional va sintagmatik munosabatlarni aniqlash imkonini ham beradi. Leksik sistemaning ichki tuzilishini bir yo‘la ochish qiyinligi uchun ishni quyiroq sathlar-mikrosistemalar sathidan boshlash (tadqiq qilish) maqsadga muvofiqdir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.** O‘zbek tili leksikasidagi semantik makromaydonlarni o‘rganishda I.Qo‘chqortoyev, R.Rasulov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, H.Ne’matov, O.Bozorov, Sh.Iskandarova, R.Safarova, A.Sobirov, S.Muhameddova, M.Narziyeva, S.G’oyibov, N.Nishanova, K.Meliyev, G.Ne’matova kabi olimlarning xizmatlari katta.

Jahon tilshunosligida terminologiya va leksikografiya, xususan, terminografiya bo‘yicha, umumiy filologik hamda sohaviy lug’atlarning ahamiyati, ularni tuzish, terminologik birliklarning soha bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarini ajratib ko‘rsatish, shuningdek, ularni umumiy filologik yoki maxsus lug’atlarda keltirish, birliklarni izohlash bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan, qator yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Milliy tilshunosligimizda ham lug’atchilikka e’tibor tilshunoslikning eng muhim tarmog’i sifatida Mahmud Koshg’ariy davridanoq boshlangan.

Qardosh turkiy tillarda ham o’simlik nomlarini o‘rganishga e’tibor qaratilgan. Xususan, Yu.Dmitriyeva, A.S.Efremov, B.K.Kaliyev, G.I.Uyukbayeva, E.S.Kuliyev, V.V.Nikitin va B.B.Kerbabayev, B.Sh.Zagulyayevalar tomonidan o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida o’simlik nomlari leksemalari va ularning badiiyati T.Ne’matova tomonidan o‘rganilgan. Shuningdek, Y.Eshonqulovning meva nomlarining tarixiy-etimologik tadqiqoti, T.No‘monovning polizchilik terminlari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyalari, M.Saparovning poliz ekinlariga doir tadqiqotlarida o’simlik nomlarini ifodalovchi apellyativ leksika ilmiy jihatdan o‘rganilgan, shuningdek, o‘zbek tilidagi o’simliklarning atoqli nomlari – fitonimlar N.Pazlitdinova tomonidan maxsus to’plangan va ilmiy tadqiqi amalga oshirilgan. Fitonimlar tilning uzoq tarixga ega bo‘lgan qismidir. Ularda xalq hayoti, madaniyati, tarixi, ijtimoiy-siyosiy qarashlaridan tashqari, ularni ijod qilgan xalqning tili va tiliga xos bo‘lgan qadimgi an’analar saqlanib qoladi. Fitonim termini ostida (yunoncha phyton – o’simlik + onim – nom) o’simliklarning nomlari tushuniladi. Fitonimlar ham o‘zbek tili leksikasida o‘ziga xos semantik maydonni hosil qiladi. Bu maydonga “fitonim” arxisemali birliklar - otlar kiradi. O’simliklar va daraxtlar bilan bog’liq leksemalar o‘zbek tili leksikasidagi eng katta semantik maydonlardan birini tashkil qiladi. Prof.S.Sahobiddinovning fikricha, yer sharidagi

o’simliklarning 500000 ga yaqin turi mavjud bo’lib, shundan O’zbekistonda 4148 turdag'i o’simliklar uchraydi. Ular 1023 avlod va 138 oilani tashkil qiladi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Avvalo, «O’simlik» tushunchasining qamroviga nimalar kiradi? degan savolga javob izlaymiz. Bunga O’zMEDa quyidagicha izoh berilgan: «O’simliklar (Plante ya’ni Vegetabilia) – tirik organizmlar dunesi; fotosintez qilish xususiyatiga ega bo’lgan avtotrof organizmlar; hujayra po’sti, odatda, qalin sellyulozadan, zaxira oziq muddasi kraxmaldan iborat. Ayrim o’simliklar (saprofitlar, parazitlar) uchun xos bo’lgan geterotrof oziqlanish ikkilamchi hisoblanadi. O’simliklarga xos boshqa xususiyatlar (o’ziga xos rivojlanish sikli, organlarning shakllanish yo’li, èpisib yashash va b.) hamma o’simliklarga tegishli emas. Lekin bu belgilar majmui o’simliklarni boshqa tirik organizmlardan oson farqlash imkonini beradi. Hozir bakteriyalar va zamburug’lar alohida dunèga ajratiladi. O’simliklar dunesi uch kichik dunè: qizil suvo’tlar, chin suvo’tlar va yuksak suvo’tlarga bo’linadi. Bu kichik dunèlar 350000 turdan iborat barcha o’simliklarni o’z ichiga oladi». Prof. A.Sobirovning fikricha, “O’simliklar (fitonimlar) dunyosi” maydonini quyidagicha semantik mikromaydonlarga bo’lish mumkin:

1) Suv o’tlari; 2) zamburg’lar; 3) yovvoyi o’tlar; 4) madaniy gular; 5) zararli o’simliklar; 6) dorivor o’simliklar; 7) boshoqli o’simliklar; 8) qora ekinlar; 9) sabzavot ekinlari; 10) ozuqabop o’simliklar; 11) sanoat ekinlari; 12) cho’l, adir, tog’ o’simliklari; 12) o’rmon o’simliklari; 13) butalar; 14) manzarali daraxtlar; 15) mevali daraxtlar.

O’zbek tilidagi fitonimlarni kelib chiqishiga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo’lib o’rganish mumkin:

- Umumturkiy fitonimlar – mazkur fitonimlar eng qadimdan mavjud bo’lib, hozirgacha qo’llanilmoqda: otquloq, qizilcha, shuwoq, isiriq, zubturum kabi.
- Fors-tojik tilidan o’zlashgan fitonimlar: olcha, sedana, atirgul, gulxayri kabi.
- Arab tilidan o’zlashgan fitonimlar: zanjabil, na’matak, za’faron kabi.
- Rus tili va u orqali boshqa g’arb tillaridan o’zlashgan fitonimlar: kaktus, malina, jenshen, aloe, astra, smorodina kabilar.
- Fitonimlar orasida qo’shma so‘z shakldagilari ham mavjud bo’lib, ular orasida ikki til yordamida hosil bo’lganlari ham uchraydi: limono’t (Ruscha+o’zbekcha), tirnoqgul (o’zbekcha+forscha), kungaboqar (arabcha+o’zbekcha) kabi.

O’zbek tilida fitonimlarni o’rganish jarayonida o’simlik nomlarining ilmiy asoslarini o’rganish, ularning maxsus atamalar lug’atini yaratish lozimligiga amin bo’ldik. O’zbek adabiy tilining izohli lug’atidagi fitonimlarni o’rganish jarayonida esa, lug’atda o’simliklar nomlarini izohlashda ayrim hollarda turlichalikka yo’l qo‘yilganligiga guvoh bo’ldik. Masalan, O’TILda “ANOR[f.1Anordoshlarga mansub, kichikroq daraxt yoki buta shaklidagi subtropik o’simlik. ..har joy-har joyda ko‘milgan anor tuplari do’mbayib yotibdi. S. Zunnunova, Olov.2 Shu daraxtning ichi qizil donalar bilan liq to‘la yumaloq mevasi. Achchiq anor. Chuchuk anor. Anor suvi. Uchinchi kuni Hafiza olma, asal.. anorlar bilan to‘la setkani bir qizdan Umidga kiritib yubordi. Mirmuhsin, Umid.3 Anor (erkaklar va xotin-qizlar ismi)

tarzida berilgan. “ANJIR [f.anjir] Tuttoshlar oilasiga mansub, sutsimon shirador, shapaloq bargli o‘simlik. 2. Shu daraxtning serurug‘, yeyishli mevasi. Anjir shaftoli” izohlarini qiyoslaganimizda anorni ham anjirni ham o‘simliklarning qaysi oilasiga mansub ekanligi berilsa-da, anor mevasining rangi va shakli aytilgan, biroq anjir mevasini “2. Shu daraxtning serurug‘, yeyishli mevasi” deb ta’rif berib qo‘ya qolingan. Demak, fitonimiyada hali hal qilinishi kerak bo‘lgan masalalar talaygina. O‘TILda fitonimlar garchand katta guruh bo‘lsa-da, biroq alohida terminologik sistema sifatida qayd etilmagan. Izohlarda bir xillik tamoyiliga amal q  
i  
l  
i

**BEHI** [f. – olmasimon xushbo‘y meva] *bot.* Issiq mamlakatlarda o‘sadigan, atirgullilar (na’nodoshlar) oilasiga mansub, xushbo‘y mevali daraxt.

**2** Shu daraxtning olmaga o‘xhash mevasi. Behining izohida esa olmasimon meva tarzida berilib, qaysi mamlakatlarda o’sishini aytadi va bunday izoh avvalgi fitonimlarda uchramaydi.

**O‘RIK** so‘zini esa qanday gulli daraxt ekanligi keltirib izohlanadi. **1** Guli oq va pushti, mevasi esa oqish, sarg‘ish, qizg‘ish ranglarda bo‘ladigan yirik daraxt. *O‘rik guli. O‘rik ko‘chati.*

**2.** Shu daraxtning danakli mevasi. *Oq o‘rik. O‘rik murabbosi. Men go‘sht-yog‘ni tashib bo‘lib, hovlining to‘riga o‘rik tergani bordim.* M. Ismoilov, Farg‘ona t. o. *Juvon dasturxonqa uchta Mpa non, ikki-uch hovuch o‘rik tashladi.* A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari.

**OLMA** **1.** Atirgullilar oilasiga mansub ko‘p yillik mevali daraxt.

**2** Shu daraxtning mevasi. *Oq olma. Qizil olma. Juvon qo‘lidagi olmani ustma-ust bir necha martaba tishladi va chala chaynab yutdi.* A. Qahhor, Ming bir jon. *Olma sharbati organizmni baquvvat qiladi.* «Saodat».

**Kekirdak olmasi** ayn. **qushtomoq.** **Olma guli** 1) pushti rang. *Olma gulli ro‘mol;* 2) olma gullagan payt, palla. *To‘ylari olma gulida bo‘lgan edi.* **Olma choy** Olmaqoqidan qovurib tayyorlangan choy. *Suvi qochgan non, olma choy bilan nonushta qilishayotganda Gadoyboy BANAN ‘Idich. Banan, Banana < a.– barmoq] *bot.* Mevasi uzunchoq yirik, yeyishli, banans ~~Olcha~~ oilasiga mansub bo‘lgan ko‘p yillar opdoshti shakli qayniga miserbaslanib kelinma danachchi Bienvahigil aytildi, kef hal qayniga qayniga ‘mavsumligini taklif hujjati avvalige dairanlagidihincha kosisi dorchatalauning tiosiq tenglatirzida emas bhabli bokosirha qilib Seziladiunova, Olov. **2** Shu daraxtning yumaloq nordon mevasi. *Olcha murabbosi.* *Yozning eng jaziramasiida olchaning suvini sharbat qilib ichilsa, tashnalikni qondiradi.* K. Mahmudov, O‘zbek tansiq taomlari.*

**OLXO‘RI** [f. – olxo‘ri + yeyishli] **1** Ra’nodoshlar oilasiga mansub danakli meva daraxti.

*Bir tup olxo‘ri. Olxo‘ri ekmoq. Dadasi, ne hasratda ko‘karayotgan olxo‘rining hamma shoxini bita qo‘ymay kesib tashlabdi.* S. Zunnunova, Ko‘k chiroqlar.

**2** Shu daraxtning shirin mevasi. *Sariq olxo‘ri. Qora olxo‘ri.* Olma mevasida rangi aytilsa, olcha, olxo‘ri mevalarida kelitirilgan misollarda ranglar aytilmaydi. Olcha va olxo‘rining 1-izohi bir xil, 2-izohida olchaning shakli va ta’mi keltiriladi.

**XULOSA.** Umuman olganda fitonimlarni izohli lug‘atda berilishini qat’iy tamoiyl asosida izolarini takomillashtish, shuningdek O‘TILga kirmay qolgan fitonimlarni ham kiritish har jihatdan muhim masala deb hisoblaymiz.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI.**

1. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi.-Toshkent, 2019.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-Toshkent: Fan, 2002.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent, 2007.
4. Rahmatullayev Sh., O‘zbek tilining etimologik lug‘ati, 1-jild, 2000-yil.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. В жилдли. И жилд. – Тошкент. ЎзМЕ. 2020.